

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI**Muqimova Dilnoza Muzaffar qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va
qiyosiy huquqshunoslik fakulteti 1-bosqich talabasi
+998976290310

e-mail: dilnozamuqimova252@gmail.com

Annotatsiya: Ommaviy axborot vositalari (OAV) har qanday demokratik jamiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular fuqarolarning axborot olish, fikr bildirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada OAV tushunchasi va ularning jamiyatdagi o'rni keng qamrovli yoritilgan bo'lib, ularning erkinligi, qonuniy asoslarda faoliyat yuritishi bilan bog'liq munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur mavzu doirasida ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi, axborot tarqatish jarayonida yuzaga keladigan muammolar shuningdek, jurnalistikaning o'ziga xos jihatlari va blogerlik faoliyati o'rtasidagi farqlar ham batafsil ko'rib chiqildi. Jurnalistlar va blogerlarning axborot tarqatish borasidagi huquqlari, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyati, shuningdek, ularning faoliyati qanday me'yoriy-huquqiy asoslar bilan tartibga solinishi haqida fikr yuritildi va senzuraning taqiqlanishi atroflicha muhokama qilindi. Ushbu masalalar doirasida jurnalistlarning axborot manbalaridan foydalanish huquqlari, yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumot tarqatish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlar va ommaviy axborot vositalarining jamiyat oldidagi burchlari haqida ham fikr yuritildi. Shu bilan birga, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun qonuniy me'yorlarga rioya qilish, axborotning haqqoniyligi va xolisligini ta'minlash bo'yicha mas'uliyatli yondashuv muhimligi alohida ta'kidlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi Konstitutsiya hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan bo'lib, ushbu maqolada

mamlakatimizda OAVning konstitutsiyaviy maqomi tahlil qilinib, xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlilda o'rganildi. Ushbu qiyosiy tahlillar natijasida mavjud qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot vositalari, OAV, huquqiy asos, konstitutsiyaviy maqom, axborot, jurnalistik faoliyat, jurnalist, senzura, erkinlik.

КОНСТИТУЦИОННЫЙ СТАТУС СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

Мукимова Дилноза Музаффар кызы

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет международного права и сравнительного

правоведения, студентка 1-го курса

Email: dilnozamuqimova252@gmail.com

+998976290310

Аннотация: Средства массовой информации (СМИ) являются важнейшим элементом любого демократического общества. Они играют ключевую роль в обеспечении прав граждан на доступ к информации, выражение мнений и формирование общественного мнения. В данной статье проводится всесторонний анализ понятия СМИ и их роли в обществе, с особым акцентом на свободу деятельности и правовую основу их функционирования. В рамках данной темы подробно рассмотрены правовой статус СМИ, возникающие в процессе распространения информации проблемы, а также различия между журналистикой и блогерской деятельностью. В статье обсуждаются права журналистов и блогеров в области распространения информации, их ответственность перед обществом, а также нормативно-правовые акты, регулирующие их деятельность. Кроме того, подробно анализируется запрет цензуры. Исследование также охватывает права журналистов на доступ к источникам информации, правовые последствия

распространения ложной или вводящей в заблуждение информации, а также обязанности СМИ перед обществом. Кроме того, особое внимание уделяется важности соблюдения журналистами и работниками СМИ правовых норм, обеспечению достоверности и объективности информации. Также в статье анализируется правовой статус СМИ в Республике Узбекистан, который определяется Конституцией и другими нормативно-правовыми актами. Проведен сравнительный анализ конституционного статуса СМИ в стране с зарубежным опытом. На основе этих сравнительных исследований выдвинуты предложения по дальнейшему совершенствованию действующего законодательства.

Ключевые слова: Средства массовой информации, СМИ, правовая основа, конституционный статус, информация, журналистская деятельность, журналист, цензура, свобода.

CONSTITUTIONAL STATUS OF MASS MEDIA

Muqimova Dilnoza Muzaffar qizi

Tashkent State University of Law

Faculty of International Law and Comparative Jurisprudence,

1st-year student email: dilnozamuqimova252@gmail.com

+998976290310

Abstract: Mass media (MM) is an essential component of any democratic society. It plays a crucial role in ensuring citizens' rights to access information, express opinions, and shape public opinion. This article provides an extensive analysis of the concept of mass media and its role in society, emphasizing their freedom and the legal framework governing their activities. Within this topic, the legal status of mass media, challenges arising in the process of information dissemination, as well as the differences between journalism and blogging activities, are thoroughly examined. The article discusses the

rights of journalists and bloggers in information dissemination, their responsibilities towards society, and the regulatory framework that governs their activities. Additionally, the prohibition of censorship is extensively analyzed. The study also explores journalists' rights to access information sources, the legal consequences of spreading false or misleading information, and the responsibilities of mass media in society. Furthermore, the importance of journalists and media professionals adhering to legal standards, ensuring the accuracy and impartiality of information, is particularly highlighted. Moreover, the legal status of mass media in the Republic of Uzbekistan is determined by the Constitution and other normative-legal documents. This article analyzes the constitutional status of mass media in the country and examines it through a comparative analysis with foreign practices. Based on these comparative studies, proposals for further improvement of the existing legislation have been put forward.

Keywords: Mass media, MM, legal framework, constitutional status, information, journalistic activity, journalist, censorship, freedom.

Kirish. Bugungi kunda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, shuningdek, mamlakatimizning siyosiy hamda ijtimoiy hayotida ularning bevosita ishtirokini kuchaytirish olib borilayotgan muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Buning uchun, albatta, axborot erkinligini ta'minlash muhim shartlardan biridir. Agar axborot oqimi erkin bo'lmasa, ommaviy axborot vositalari insonlarga o'z fikr va g'oyalarini, yuz berayotgan voqealarga bo'lgan munosabati hamda pozitsiyasini ochiq ifoda etish imkoniyatini bera olmaydi. Shunday ekan, demokratik rivojlanish, fuqarolar ishtiroki va o'zaro ijtimoiy muloqotning kengayishi uchun mustaqil va erkin axborot muhitini yaratish zarur. Ushbu sharoitda insonlar o'zaro fikr almashib, muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini izlash imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa jamiyatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shunda ekan, mamlakatdagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida OAV alohida o'rin tutadi. Chunki aynan ommaviy axborot vositalari nafaqat

mamlakatimizdagi dolzarb muammolar, balki xorijdagi muhim voqealar, qonunchilikdagi o'zgarishlar va turli yangiliklarni yoritib borish orqali davlat hamda jamiyat o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlaydi. Shu sababli, OAV fuqarolarning xabardorlik darajasini oshirish bilan birga, u orqali Konstitutsiyada belgilangan turli fikrlilik, fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari hisoblangan so'z erkinligi, erkin fikr bildirish huquqlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga aytishimiz joizki, ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishi, ularga tazyiq o'tkazmaslik ular ishining muvaffaqiyatli bo'lishi, samara berishining garovidir.[1,370-b] OAV haqida so'z borar ekan, nafaqat ommaviy axborot vositalarining erkinligi, ularning huquqiy maqomlari, balki ushbu sohaga tegishli bo'lgan jurnalistik faoliyat va jurnalistlarning hamda hozirgi kunda xalq orasida ommalashib borishga ulgurgan bloggerlarning huquqiy faoliyati asoslari, ularning erkinligi, mustaqilligi va boshqa masalalar haqida o'rganilgan barcha ma'lumotlar batafsil tahlil qilinadi. Oldinga qo'yilgan ushbu masalalarni haqida J.Qudratillayev, J. Ilxombekov kabi huquqshunos olimlar o'z ilmiy ishlari jumladan, "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining Konstitutsiyaviy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida ham yetarlicha to'xtalib o'tilgan bo'lib, ushbu qo'llanmada shu turdagi masalalar atroflicha muhokama qilingan. Ushbu qo'llanmada OAVning tushunchasi, ularning erkinligi va qonunga muvofiq faoliyat yuritishi, jurnalistik faoliyat erkinligi va bloggerlik faoliyati, so'z va axborot tarqatish erkinligi, senzura yo'l qo'yilmaslik masalalari va boshqalar haqida fikrlar ilgari surilgan. Bundan tashqari OAVning huquqiy faoliyati va konstitutsiyaviy asoslari to'g'risida ko'plab ilmiy maqolalar chop etilgan bo'lib, ularning barchasida mualliflarning OAV bo'yicha shaxsiy fikrlari va yondashuvlari o'z ifodasini topgan. Hozirgi kunda OAV va jurnalistika tizimini yanada isloh qilish, ular faoliyatining konstitutsiyaviy maqomini ta'minlash va ularni himoya qilish, davlat organlari va OAV o'rtasida ochiqlikni rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ommaviy axborot vositalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Jonajon O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining yangi va muhim bosqichiga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda media sohasi vakillari – jurnalist va

muharrirlar, rejissyor va operatorlar, bloggerlar, teleradio kanallar, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxona xodimlari Vatanimizning demokratik qiyofasini shakllantirish, uni dunyoga tarannum etishga beqiyos hissa qo‘shib kelayotganini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi”- deya bildirilgan ta’biridan buning yaqqol isbotini ko‘rishimiz mumkin.[2, 4-b]

Material va metodlar: Shunday qilib, OAVning konstitutsiyaviy maqomining qay darajada mustahkamlab qo‘yilgani hamda jurnalistlar va bloggerlarning huquqiy maqomlarini ta’minlash borasidagi izlanishlarda qator usullardan foydanildi. Ushbu jarayonni ya’ni OAVning erkinligi, senzura masalalari, OAVning chet davlatlardagi maqomi qay darajada mustahkamlanganligini yoritishda tarixiy va tahliliy metodlardan keng foydalanildi. Bundan tashqari chet el tajribasi bilan asoslantirgan holda mavjud qonunchilik tizimiga o‘zgartirish taqdim etishda qiyosiy-huquqiy metoddan, shuningdek maqolani keng muhokama qilishda kuzatish, umumlashtirish kabi metodlardan ham foydanildi.

Tadqiqot natijalari: Mamlakatimizda so‘z erkinligini yanada mustahkamlash, axborot va media sohasini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish hamda uni zamonaviy talablarga moslashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishida mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni sezilarli darajada oshirilmoqda. Bu jarayonlar jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishini qo‘llab-quvvatlash, media sohasi subyektlari uchun huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, fuqarolarning jamiyat hayotidagi dolzarb masalalar yuzasidan o‘z fikrlarini erkin ifoda etishi uchun keng imkoniyatlar yaratish orqali amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, so‘nggi o‘n yil ichida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini liberallashtirish va so‘z erkinligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tashkiliy va huquqiy islohotlar joriy etildi. Ushbu jarayonda, axborot vositalarining mustaqil va tez rivojlanishini kafolatlaydigan, demokratik standartlarga mos keladigan, mustahkam qonunchilik bazasi yaratishga katta e’tibor qaratildi. Shu davr mobaynida, axborot

sohasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va uni kelgusida yanada rivojlantirishga qaratilgan taxminan o'nga yaqin qonun hujjatlar qabul qilinib, ushbu sohada tartib va me'yorlar joriy etildi. [2, 6-b]Yurtimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan shu kabi ishlar natijasida ularning erkinligini ta'minlovchi qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, har bir tarmoqlari tegishli hujjatlar bilan tartibga solingan. Birinchi o'rinda bosh qomusimiz deya e'tirof etilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu qonunning XV bobi "Ommaviy axborot vositalari" deb nomlangan bo'lib, 81- va 82-moddalarida ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq maxsus normalar mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra davlat OAVning erkin faoliyat yuritishini kafolatlaydi hamda axborotni izlash, olish, undan foydalanish va tarqatish huquqlarini ta'minlaydi. Bu normalar jamiyatning ishonchli axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, OAV faoliyatiga noqonuniy aralashish yoki to'sqinlik qilish qonuniy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan bo'lib, nafaqat ommaviy axborot vositalari balki jurnalistlarning turli xil bosimlarsiz erkin ishlashiga sharoit yaratish barobarida jamiyatda ochiqlik va oshkoralik muhitini shakllantirishga yordam beradi.[3] Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ommaviy axborot vositalarining har bir sohasi, uning tarmoqlari ham tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan bo'lib, buning yaqqol isbotini Konstitutsiyamiz asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2007-yil 15- yanvarda O'RQ-78-son "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu normativ hujjat ommaviy axborot vositalari sohasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Ushbu hujjatda OAV tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, unga ko'ra "Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yiki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan, qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa

shakllari ommaviy axborot vositasidir”.[4] Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ommaviy axborot vositasi deya e’tirof etilishi uchun ham qonunchilikda maxsus talablar belgilangan. Uning asosiy xususiyatlari esa doimiy nomga ega bo’lishi, ommaviy axborotni davriy ya’ni olti oyda kamida bir marta tarqatishi va qonunchilikda belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tishi hisoblanadi. Bundan tashqari 1997-yil 24-aprelda 402-I-son “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to’g’risida”gi Qonun qabul qilingan bo’lib, u orqali jurnalistika va jurnalistlar faoliyati erkinligini oshirish maqsadida ushbu sohadagi munosabatlar tartibga solinadi. Unga ko’ra, davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning senzura joriy etishi, jurnalistga bosim o’tkazishi yoki uning faoliyatiga noqonuniy aralashishi taqiqlanadi va bunday holatlar qonuniy javobgarlikka sabab bo’ladi. Jurnalistlarning kasbiy faoliyatiga to’sqinlik qilish, ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish, hayoti va mol-mulkiga tahdid qilish kabi harakatlar qonuniy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, 2003- yil 11-dekabrda 560-II-son “Axborotlashtirish to’g’risida”gi Qonun esa axborot tizimlari va axborot resurslaridan foydalanish, axborotlashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. 2014-yil 5-maydagi O’RQ-369-son “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to’g’risida”gi Qonun esa jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to’g’risidagi axborotdan foydalanishini, olishini va tarqatish tartibini belgilaydi va ushbu munosabatlarni tartibga soladi. [5] Yuqoridagi qonunlar va hujjatlar O’zbekiston Respublikasida OAVning huquqiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan bo’lib, jamiyatda erkin fikr almashinuvi va oshkoralikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sohaga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish orqali jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishiga qulay muhit yaratish, axborot olish va tarqatish huquqlarini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari: Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida tobora muhim o’rin egallab, xalqning ovozi va manfaatlarini ifoda etuvchi kuchga aylanib bormoqda. Ular faqatgina axborot tarqatish bilan cheklanmay, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolarning fikr va qarashlarini aks ettirish, muhim ijtimoiy masalalarni

muhammaga qo'yish orqali to'rtinchi hokimiyat sifatida faoliyat yuritmoqda.[6] Shu sababli, ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati tobora ortib borayotgan bir paytda, ularni fuqarolik jamiyati institutlaridan biri sifatida konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilishi jamiyatimizda so'z erkinligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, OAV erkinligi va mustaqilligi fuqarolarning dolzarb masalalar yuzasidan xabardor bo'lishini ta'minlaydi, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi hamda hukumat va davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga imkon beradi. Shu bois, ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomini yanada mustahkamlash va ularning erkin faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish demokratik jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida 2019-yilda davlat va nodavlat tashkilotlardagi axborot xizmatlarining manbalari - rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar 559 tadan iborat edi. 2021-yilda esa bu son 2140 taga yetgan bo'lsa, 2023-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkichlar 4500 dan oshdi.[2, 5-b] Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyatini ta'minlash chet el mamlakatlarida ham o'z aksini topgan. Bu borada xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir davlatda OAVning Konstitutsiyaviy maqomi turlicha belgilangan. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi misolida ko'rib chiqaylik. Germaniyada so'z va matbuot erkinligi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan bo'lib, bu demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Germaniya asosiy Qonunining (Grundgesetz) 5-moddasida so'z, fikr, axborot va matbuot erkinligi ustuvorligi hamda senzuraning taqiqlanishi mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu erkinliklarni himoya qilishda nafaqat konstitutsiyaviy asoslar, balki federal konstitutsiyaviy sud qarorlari, xalqaro huquq me'yorlari ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, mamlakatdagi federal yerlarning ommaviy axborot vositalariga oid qonunlari ham matbuot erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, axborot olish erkinligi jurnalistikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Biroq, rivojlangan davlatlarda ham jurnalistlarning davlat idoralaridan va ularning mansabdor shaxslaridan kerakli bo'lgan axborotni olish jarayoni har doim ham erkin bo'lmagan, ya'ni, ushbu

jarayonda jurnalistlar ma'lum bir qiyinchiliklarga, muammolarga duch kelishgan. Xususan, Germaniyada bu muammoni hal qilish va davlat idoralari bilan ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirish maqsadida 1949-yilda Bundespressekonferenz (Federal matbuot anjumani) tashkil etilgan. [7] Ushbu tashkilot jurnalistlarni dolzarb va rasmiy axborotlar bilan ta'minlash, davlatning ochiqlik siyosatini qo'llab-quvvatlash hamda matbuot va hukumat o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yish uchun xizmat qiladi. Mazkur tizim orqali jurnalistlar hukumat va rasmiy tashkilotlarning faoliyati haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, bu jamiyatda shaffoflik va ochiqlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarining mustaqil va erkin faoliyat yuritishini ta'minlash nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, dunyoning ko'plab mamlakatlarida OAVning mustaqil faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli xil qonunchilik hujjatlari, tashkilotlar, tuzilmalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, OAVning erkinligi va huquqlarini himoya qilish, jurnalistlarning xavfsiz faoliyat olib borishini ta'minlash hamda bu sohada xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida bir qator xalqaro tashkilotlar ham faoliyat yuritmoqda. Masalan, Freedom house, Reporters Without Borders (Chegara bilmas muxbirlar), Free Press Unlimited, IREX kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Ushbu tashkilotlar haqida batafsil tanishadigan bo'lsak, Freedom House - butun dunyoda erkinlikni, ommaviy axborot vositalarining erkinligini oshirishga xizmat qiladigan mustaqil kuzatuvchi tashkilot hisoblanadi. Chegara bilmas muxbirlar (Reporters Without Borders) deb nom olgan tashkilot esa butun dunyo bo'ylab axborot erkinligiga qilingan hujumlarni doimiy tarzda kuzatish, OAVga bunday hujumlarni qoralash, axborot erkinligini cheklashga va senzura qaratilgan qonunchiliklarga qarshi kurashish uchun hukumatlar bilan birgalikda harakat qilish kabi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Bundan tashqari, Free Press Unlimited - matbuot erkinligi ta'minlanmagan mamlakatlarda aholini axborot bilan ta'minlaydi va imkon qadar ko'proq odamlarga hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish va foydalanish imkonini berishga

harakat qiladi. Ishonchli ma'lumotlar va yangiliklar butun dunyo bo'ylab ochiq bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, IREX tashkilotining faoliyati asosan OAVga qaratilgan bo'lib, ularning barqarorligini, professionalligini ta'minlashga, jurnalistlarni qo'llab-quvvatlovchi mahalliy institutlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi kabi tashkilotlar axborot olish va tarqatish huquqini himoya qilish, senzura va bosimlarga qarshi kurashish, shuningdek, jurnalistlarning erkin ishlashi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan qoidalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.[8] Shu sababli, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanishi va soha xodimlari huquqlarining himoya qilishi uchun xalqaro tajribani o'rganishi va tatbiq etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari tahlili: Ommaviy axborot vositalarining erkinligi avvalo ularning xodimlari ya'ni jurnalistlarning erkinligi bilan bog'liq. Ularning erkinligini ta'minlamay turib, OAVning erkinligi haqida gapirishning o'zi noo'rin hisoblanadi.[2,22-b] Chunki barcha axborotlar jurnalistlar tomonidan tarqatiladi. Bugungi kunda globalashuv jarayonida OAVda tarqatilayotgan har qanday axborotlar, yangiliklar ortida ularning mualliflari, muharrirlari, jurnalistlar va so'ngi kunlarda xalq ichida ommalashib borayotgan blogerlar faoliyat yuritib kelmoqda. Lekin, ushbu jarayonlarda jurnalistlar va blogerlar tushunchasini farqlash maqsadga muvfiq hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" gi qonunning 3-moddasida jurnalistga huquqiy ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra jurnalist deyilganda mehnatga oid yoki boshqa shartnomaviy munosabatlar asosida ommaviy axborot vositalari uchun xabarlar va materiallarni to'plash, tahlil etish, tahrir qilish, tayyorlash hamda tarqatishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs tushiniladi. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida esa bloger tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, bloger - Internet jahon axborot tarmog'idagi o'z veb-saytiga va (yoki) veb-sayt sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatga ega axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan axborotdan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi.

Umuman olganda blog har bir insonning shaxsiy kundaligiga o'xshab ketadi va kundalikning internetda joylashgan turi hisoblanadi.[2,27-b] Bundan kelib chiqadiki, barcha odam blogger bo'lishi mumkin, lekin barcha odam ham jurnalist hisoblanmaydi. Ya'ni jurnalist bo'lish uchun ma'lum bir talablar belgilangan bo'ladi, blogger deb topish uchun esa Jahon Internet tarmog'ida o'z veb-saytiga ega bo'lgan va turli xil axborotlarni joylab boradigan yoki o'z blogiga qiziqarli bo'lgan maqolalar, ma'lumotlarni joylab boradigan barcha odamlarni olishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida jurnalistlar faoliyati aniq tartibga solingan bo'lib, "Axborotlashtirish to'g'risida" gi qonunning 12-moddasida nafaqat jurnalistlar, veb-sayt va veb-sayt sahifasining egasi, jumladan, bloggerlar tomonidan tarqatilishi man etilgan axborot materiallari turlarining aniq ro'yxati belgilab qo'yilgan. Ushbu ro'yxatga muvofiq, mavjud konstitutsiyaviy tuzim va hududiy yaxlitlikni zo'ravonlik yo'li bilan o'zgartirishga harakat qilish; urush, zo'ravonlik, terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini ilgari surish; shuningdek, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'atadigan, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'yuvchi axborotning tarqatilishi qat'iyan man etiladi. Qonun normasi, veb-sayt yoki uning sahifasi egasidan axborot materialini joylashtirishdan oldin uning to'g'riligini tekshirishni ham talab qiladi. Agar ushbu normalarga rioya qilinmasa, tegishli veb-sayt yoki veb-sahifa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida maxsus vakolatli organ tomonidan cheklanishi mumkinligi qayd etilgan.[2,34-b] Mazkur qonundagi ushbu normani tahlil qilish davomida bir muammo yuzaga keldi. Muammo shundaki, ushbu ya'ni "Axborotlashtirish to'g'risida" gi qonunning 12-moddasida yuqorida aytib o'tilgan "milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'atadigan, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'yuvchi axborotni tarqatish" ning taqiqlanishini ko'zda tutuvchi norma mavjud. Ushbu normani bajarmaganlik uchun qonunchilikda ma'muriy, jinoiy kabi javobgarliklar belgilan qo'yilgan. Lekin, ushbu normaning blogerga nisbatan ham tatbiq etilishi qanchalik to'g'ri ekanligi ayrim

muhoamalarga sabab bo'ladi. Masalan, batafsil tarzda yoritadigan bo'lsak, universitetda ma'lum bir mansabdor shaxs, misol uchun, dekan talabalarni o'z uyida ishlatayotgani haqida universitetning blogger talabalaridan biri o'z blogida post yozib qoldirdi va bu haqida ko'plab obunachilar xabar topdi. Bundan axborot materialining qo'yilishi esa dekaning "ishchanlik obro'siga, sha'ni va qadr-qimmatiga" yetarlicha putur yetkazadi. Bu yerda yolg'on axborot mavjud emas va hamma axborot haqqoniyligicha blogda yoritilgan bo'lsa, ushbu blogger talabaga javobgarlik yuklanadimi degan savol tug'ildi. Yuqoridagi norma bo'yicha tahlil qilib, sharhlaydigan bo'lsak, ushbu talabaga dekaning ishchanlik obro'si, sha'ni, qadr-qimmatiga zarar yetkazganligi uchun ma'lum javobgarlik yuklatilishi kerak. Agar ushbu norma shu tarzda sharhlanadigan bo'lsa, qonunchilikda ziddiyat yuzaga keladi. Buni oldini olish uchun esa normaga birgina jumla ya'ni "yolg'on ma'lumotlar" jumlasini qo'shish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni "milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo'zg'atadigan, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'yuvchi yolg'on axborotni tarqatish" javobgarlikka sabab bo'lishi keltirilsa norma to'g'ri tatbiq qilingan bo'ladi. Shu kabi huquqiy holatlar yuzaga kelganda yuqoridagi singari axborotlarni tarqatgan blogger agar tarqatgan ma'lumoti yolg'on bo'lgandagina javobgarlikka tortilishi, agar to'g'ri bo'lganida esa, ishchanlik obro'siga, sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazish yoki yetkazmasligidan qat'i nazar javobgarlik olib tashlanishi adolatli yechim bo'lar edi. Shu o'rinda yana bir masala yuzaga keladi. Aslida bloggerlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati tegishli tartibda to'liq nazoratga olinishi kerak. Lekin muammo shundaki, veb-sahifalar va bloglarni nazoratda ushlab turishning umuman imkoni ham, iloji ham yo'q. Shu kungacha hech bir davlat bu vazifani muvaffaqiyatli bajara olmagan. Sababi, internetdagi cheklovlarni aylanib o'tish texnologiyasi bilan tanish bo'lgan har qanday shaxs uchun bu turdagi cheklovlar jiddiy to'siq bo'la olmaydi. Bundan tashqari, internetning global tabiati va texnologik yangiliklari tufayli, bunday cheklovlarni bartaraf etish har qanday hollarda qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Ushbu turdagi cheklovlar o'rnatishning o'rniga, mavjud tizimga o'zgartirish

kiritish, yangi g'oyalar ishlab chiqish to'g'riroq yechim bo'la oladi. Shu o'rinda bir narsani ham aytishimiz joizki, blogger tushunchasiga qonunchilikda huquqiy ta'rif berilgan bo'lsa ham blogger tushunchasi ya'ni blogning o'zi nimaligi yoki blogerning o'zi kimligi haqida aniq asoslar qonunchiligimizdan hali o'z aksini topmagan. Bundan tashqari mamlakatimizda bloggerlik faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun hali ishlab chiqilmagani va javobgarlik masalalari aniq belgilab qo'yilmaganligi ham buning yaqqol isbotidir. Bundan tashqari OAV ga oid qonunchilik hujjatlarini o'rganish davomida ushbu normativ-huquqiy hujjatlarning ayrimlariga ham bir nechta qo'shimchalarni qo'shish yuzasidan chet el tajribasi bilan asoslantirgan holda ma'lum bir takliflarni ilgari sursak. O'zbekiston Respublikasi "Jurnalistlar faoliyatini himoya qilish to'g'risida" gi qonunning 8-moddasi jurnalistlarning daxlsizligiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu moddaning 1-qismida "Jurnalist jurnalistlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida shaxs daxlsizligi kafolatidan foydalanadi" degan norma mavjud. Ya'ni unga ko'ra jurnalistlar o'z faoliyatida shaxs daxlsizligidan foydalanishadi. Ushbu moddaning davomiga qo'shimcha sifatida "..., o'z faoliyatini amalga oshirayotganda, ular har qanday tahdidlardan, jismoniy yoki huquqiy ta'qiblardan himoya qilinadi. Davlat jurnalistlarning mustaqilligini va xavfsizligini ta'minlash uchun zarur huquqiy va amaliy choralarni ko'radi" , mazmundagi jumla kiritishni taklif qilmoqchimiz. Mazkur moddani to'liq keltirsak, yuqoridagi o'zgartirish natijasida norma quyidagi ko'rinishda bo'ladi: " Jurnalist jurnalistlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida shaxs daxlsizligi kafolatidan foydalanadi, o'z faoliyatini amalga oshirayotganda, ular har qanday tahdidlardan, jismoniy yoki huquqiy ta'qiblardan himoya qilinadi. Davlat jurnalistlarning mustaqilligini va xavfsizligini ta'minlash uchun zarur huquqiy va amaliy choralarni ko'radi. Tanqidiy materiallar e'lon qilganligi uchun jurnalistni ta'qib qilishga yo'l qo'yilmaydi". Ushbu o'zgartirishlar jurnalistlarning faoliyatini himoya qilish, ularning ish erkinligini ta'minlashga qaratilgan. Birinchidan bu o'zgartirish ularning ochiq va shaffof axborot olish imkoniyatini yaratadi. Ikkinchidan esa, jurnalistlarning ishini qo'llab-quvvatlaydi va davlat tomonidan huquqiy himoyani kuchaytiradi. Shu bilan birga, ular o'z vazifalarini bajarishda hech qanday muammoga

duch kelmasdan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari yuqoridagi o'zgartirish natijasida davlat tomonidan ularning ish faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida himoya mexanizmlari joriy etilganligi ularning nafaqat davlatga balki o'z kasbiga nisbatan bo'lgan ishonchni oshirish mumkin. Misol uchun, Fransiyada jurnalistlarni himoya qilish uchun "Jurnalistlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun" (Protection of Journalists Act) mavjud.[9] Ushbu qonun jurnalistlarni jismoniy va turli xil tahdidlardan himoya qilishni nazarda tutadi va davlat darajasida huquqiy yordam ko'rsatishni ta'minlaydi. Fransiyada hukumat yoki davlat idoralari jurnalistlarga nisbatan amalga oshirilgan har qanday tahdidni oldini oladi va tahdidlar yuzaga kelganda ma'lum bir sanksiya qo'llanadi. Bundan tashqari yuqorida ko'rilgan qonunning 9-moddasi "Jurnalist tekshiruv" deya nomlangan bo'lib, ushbu moddaning 2-qismida "Jurnalist o'z tekshiruvlarining natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishga, ularni davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin" degan jumla keltirilgan. Bunga ko'ra jurnalist o'zi to'plagan ixtiyoriy tekshiruvlarni normadagi organlarga taqdim etishi mumkin degan xulosaga kelamiz. Bunga mustasno sifatida quyidagicha o'zgartirish kiritishni taklif sifatida kiritmoqchimiz: "milliy xavfsizlik va razvedka ma'lumotlari; maxfiy davlat arxivi ma'lumotlari; davlat siri deb topilgan ma'lumotlar; shaxsiy hayot bilan bog'liq ma'lumotlar (masalan, oilaviy hayot, sog'lik holati); tijorat sirlari kabi tekshiruv natijalari bundan mustasno". Ushbu o'zgartirish nafaqat fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, balki davlat xavfsizligi, jamoatchilik ishonchi, shaxsiy hayotni hurmat qilish va jamiyatda tartibni saqlashga xizmat qiladi. Bunday normaning joriy etilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga va qonun ustuvorligini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi. Agar qonuniy normada shaxsiy hayotni himoya qilishga oid qat'iy cheklovlar belgilansa, bu fuqarolarning shaxsiy huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Ushbu cheklovlarni o'rnatish jurnalistlar o'z faoliyati davomida davlat bilan bog'liq yoki shaxsiy hayot bilan bog'liq axborotlarga ega bo'lgan paytda ularni o'z xohishicha ixtiyoriy ravishda ommaviy

axborot vositalari yoki boshqa tashkilotlarga taqdim etishini oldini oladi va ularning qonuniy ravishda faoliyat yuritishi hamda ayrim shu kabi ma'lumotlarni tarqalishini oldini oladi. Ba'zi hollarda jurnalistlar tomonidan shu kabi axborotlarni tarqalishi ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda va natijada jurnalistik faoliyat davlat tomonidan tugatilishiga olib kelmoqda. Masalan, Fransiyada, 2021 -yilda 30% jurnalistik faoliyatni taqiqlashga oid sud ishlarida davlat sirlarini oshkor qilish bilan bog'liq vaziyatlar mavjud bo'lgan. Bundan tashqari AQShda 2022- yilda Shield Law (jurnalistlarni manbalarni oshkor qilmaslikdan himoya qiluvchi qonun) asosida 100 dan ortiq sud ishi ko'rildi.[10] Bularning aksariyati davlat xavfsizligi yoki maxfiy axborotlar jurnalistlar tomonidan oshkor qilinganiga doir bo'lgan ishlar edi. Shu kabi holatlarni oldini olish uchun yuqoridagi o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, jurnalist axborotni izlash, saqlash va tarqatish jarayonida muayyan qoidalarni buzsa, bu oddiy fuqaro tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarlikdan farqli baholanishi kerak. Sababi, jurnalistlarning bergan ma'lumotlari jamiyat tomonidan odatda ishonchli deb qabul qilinadi. Ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilingan har qanday xabar yoki ma'lumot keng auditoriya tomonidan deyarli shubhasiz to'g'ri axborot sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli, jurnalistlar o'z faoliyati davomida boshqalarga nisbatan yuqori darajadagi mas'uliyatni his qilishi va axborotni tarqatishda aniq, xolis hamda ishonchli bo'lishi lozim.

Jurnalistikaning jamiyatdagi ta'siri va roli hisobga olinsa, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni baholashda maxsus yondashuv zarur hisoblanadi. Jurnalistlarga nisbatan qilingan tahdidlar yoki ularga to'sqinlik qilish jamiyatning umumiy axborot olish huquqiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bilan birga, jurnalistlar ham axborot bilan ishlashda o'z kasbiy etikasi va qonuniy majburiyatlariga qat'iy rioya qilishi kerak. Shu sababli, jurnalistlar faoliyatiga oid huquqiy masalalarni oddiy fuqarolar bilan bir xil darajada baholash adolatsizlikka olib kelishi mumkin, chunki ularning jamiyatdagi o'rni va ta'siri ancha keng ko'lamli va mas'uliyat talab qiladi. Bundan tashqari, jurnalistika va

ommaviy axborot vositalariga qarshi amalga oshirilgan jinoyatlar hamda huquqbuzarliklar yuz berganda, qonun analogiyasiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega. Chunki jurnalistlar jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida axborotni izlash, uni tahlil qilish va ommaga yetkazish bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hisoblanadi. Ushbu kasb egalari o‘z faoliyati davomida turli xavf va bosimlarga duch kelishi mumkin. Shu bois, ularga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar yoki tahdidlar odatiy fuqarolarga nisbatan qo‘llanadigan javobgarlik choralari aynan mos kelmasligi kerak. Agar jurnalistlarga nisbatan qilinadigan jinoyat va huquqbuzarliklar boshqa shaxslarning huquqlarining buzilishi bilan bir xil baholansa, bu adolatsizlik va noxolislikka olib kelishi mumkin. [2, 47-b]

Bundan tashqari, senzura masalasi ham qonunchiligimizdan joy olgan bo‘lib, buning isbotini O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 82-moddasida senzuraning qat’iyan man etilishi belgilanganidan ko‘rishimiz mumkin. Unda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga aralashish yoki to‘sqinlik qilish qonuniy javobgarlikka sabab bo‘lishi qayd etilgan. Mazkur qoida jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilayotgan ma’lumotlarga oldindan ta’sir ko‘rsatish, ularni nazorat qilish, o‘zgartirish yoki nashr etilishiga cheklovlar qo‘yish mumkin emasligini anglatadi. Agar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinayotgan axborotlar davlat siri, milliy xavfsizlik yoki konstitutsiyaviy tuzumga qarshi kelmasa, ularni senzura qilishga hech qanday asos yo‘q hisoblanadi. Ushbu prinsipning Konstitutsiyaga kiritilishi sababsiz emas. Chunki avvalgi sovet davrida ommaviy axborot vositalari qattiq senzura ostida bo‘lgan, barcha nashrlar va axborot materiallari oldindan ko‘rib chiqilib, tegishli o‘zgartirishlar kiritilmaguncha yoki ayrim qismlari olib tashlanmaguncha, ommaga e’lon qilinishi taqiqlangan edi. Bu holat jamiyatda so‘z va fikr erkinligini cheklagan, jurnalistlarning erkin ijod qilishiga jiddiy to‘sqinlik qilgan.[11] Shu boisdan, mustaqillik davrida senzuraning taqiqlanishi jamiyatda erkin fikrlash, ochiq axborot almashinuvi va mustaqil jurnalistikaning rivojlanishi uchun muhim qadam bo‘ldi. Senzuraning yo‘qligi ommaviy

axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishiga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida, jurnalistlar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantiradi, axborot sifati va haqiqatga mosligini oshiradi, shuningdek, jurnalistlarning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Axborot maydonida turli nuqtai nazarlarning erkin ifoda etilishi va turfa fikrlarning almashinuvi jamiyatdagi demokratik tamoyillarning mustahkamlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining erkinligi mutlaq cheklanmagan. Chunki axborot tarqatish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy me'yorlar mavjud bo'lib, ular milliy xavfsizlik, jamoat tartibi va fuqarolarning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ba'zi axborotlarni oshkor qilishni cheklaydi. Shu sababli, senzura taqiqlangan bo'lsa-da, ommaviy axborot vositalari qonuniy chegaralar doirasida faoliyat olib borishi lozim hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligida ham ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish mumkin emasligi aniq belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, ba'zi axborotlarning oshkor qilinishiga doir cheklovlar xavfsizlik va jamoat manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bu esa, o'z navbatida, axborot olish erkinligini ta'minlash bilan birga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasidir.

Xulosa va takliflar: O'zbekiston Respublikasi Ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy maqomini o'rganish yakunida OAV faoliyati dunyodagi tartibga solinishi, muhofaza qilinishi va xavfsizlihi ta'minlanishi kerak bo'lgan tarmoq sifatida har doim qonunchilik markazida hisoblanadi degan xulosaga kelindi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, demokratik jamiyatda so'z va fikrlash erkinligi muhim tamoyillardan biri bo'lib, uni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Avval aytganimizdek, aynan ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolar dolzarb yangiliklar, muhim voqea-hodisalar, mamlakat va dunyo miqyosidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, ular o'z fikrlarini erkin bildirish, turli masalalar bo'yicha munozaralar olib borish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniga ham ega bo'ladilar. Bugungi kunda ommaviy axborot

vositalari sohasi jadal rivojlanmoqda, chunki axborotga bo'lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda. Shu o'rinda, ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni yuqori ekanligini inobatga olgan holda, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv idoralarining OAV murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda davlat idoralaridan axborot so'rab murojaat qilgan fuqaro yoki tashkilotning so'rovi ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 kun ichida ko'rib chiqilishi belgilangan. OAVning davlat boshqaruvi organlari faoliyati bo'yicha axborot so'rovlari esa yetti kun ichida ko'rib chiqiladi. Mansabdor shaxslar bilan intervyu tashkil etish bo'yicha so'rovlar ham shu muddat ichida ko'rib chiqiladi. Biroq, bugungi raqamli texnologiyalar davrida tezkorlik va dolzarblik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot har soniyada yangilanayotgan sharoitda, mavjud muddatlar kechikishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu muddatlarni mos ravishda yetti va besh kunlik vaqt doirasiga qisqartirish zarur.[2, 20-b] Bu esa nafaqat axborot ishonchliligini oshirish, balki boshqaruv organlari faoliyatining yanada shaffof bo'lishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tezkor axborot taqdim etishi ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi nazorat funksiyasini mustahkamlashga yordam beradi. OAV orqali aholining davlat boshqaruvi va ijtimoiy jarayonlarga nisbatan xabardorligi oshadi, bu esa jamoatchilik nazoratining samaradorligini kuchaytiradi. Axborot qanchalik tez yetkazib berilsa, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari jamiyatda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash, fuqarolarni xabardor qilish, muhim masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish kabi vazifalarni samarali bajarishi mumkin bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, so'z va fikrlash erkinligi jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, bu erkinlikni to'laqonli amalga oshirish ommaviy axborot vositalarining erkin va samarali faoliyat yuritishiga bog'liq. OAV faoliyatini qo'llab-quvvatlash va axborot olish jarayonlarini soddalashtirish orqali jamiyatda oshkoralikni ta'minlash, davlat boshqaruvining shaffofligini oshirish va fuqarolarni ishonchli axborot bilan ta'minlash mumkin. Shu sababli, davlat organlarining OAVga axborot berish jarayonlarini yanada tezlashtirish va samaradorligini oshirish bugungi zamon talabi hisoblanadi.

REFERENCES:

1. Konstitusiviy huquq: darslik / Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2024. -800b.
2. Ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy asoslari: o'quv qo'llanma / J. Qudratillayev, J. Ilxombekov. - T.: TDYU nashriyoti, 2023. -80b.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
4. O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni
5. O'zbekiston qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi . Available at: <https://www.lex.uz>
6. Qudratillayev.J. "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi va qonunga muvofiq faoliyat yuritishi". Available at: <https://in-academy.uz>
7. Germaniya: To'rtinchi hokimiyat qanday ishlashi kerak?. Available at: <https://n.ziyouz.com>
8. "Worldwide round-up of journalists killed, detained, held hostage, or missing in 2018" (PDF). Reporters Without Borders. 1 December 2018.
9. Ne'matov, M. . (2023). Jurnalist daxlsizligining xalqaro huquqda ta'minlanishi. Молодые ученые, 1(18), 127–131. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/23573>
10. "Shield Law" / Journalists, Media, Protection. Available at: <https://www.britannica.com>
11. Федотов М. А. Гласност и цензура: возможность сосуществования // Советское государство и право: журнал. — Наука, 1989. — Вып. 7.